



Linguocultural study of paralinguistic means in media communication

Khayotkhon ASKARALIYEVA¹

Fergana State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2024

Received in revised form

10 October 2024

Accepted 25 October 2024

Available online

25 November 2024

Keywords:

paralinguistics,
media-communication, non-
verbal means,
linguo-culturology,
gender characteristics,
communication analysis,
professional communication,
lingu-psychology.

ABSTRACT

The article is devoted to the analysis of paralinguistic means in media communication and their linguocultural and linguopsychological study. Paralinguistic means are considered a key element that complements or sometimes replaces verbal means in communication. The study analyzes the gender, national, and professional aspects of nonverbal communication, as well as their role in society and professional activity. Both universal and specialized types of paralinguistic means are described, emphasizing their importance for improving the effectiveness of communication.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss5/S-pp277-281>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Media-kommunikativ muloqotda paralingvistik vositalarning lingvokulturologik tadqiqi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

paralingvistika,
media-kommunikatsiya,
noverbal vositalar,
lingvokulturologiya,
gender xususiyatlari,
muloqot tahlili,
kasbiy muloqot,
lingvopsixologiya.

Mazkur maqolada media-kommunikativ muloqotda paralingvistik vositalarning ahamiyati va ularning lingvokulturologik tadqiqi tahlil qilingan. Paralingvistik vositalar muloqotda axborotni ifodalashda verbal vositalarni to'ldiruvchi va ba'zan ularning o'rnini bosuvchi asosiy element sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda noverbal vositalarning lingvomadaniyatshunoslik va lingvopsixologik o'lchamlari, gender xususiyatlari, milliy va professional ko'rinishlari, shuningdek, ularning jamiyat va kasbiy faoliyatdagi ahamiyati tahlil etilgan. Paralingvistik vositalarning universal va xususiy turlari muloqot samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida tavsiflangan.

¹ PhD student, Fergana State University.

Лингвокультурологическое исследование паралингвистических средств в медиакоммуникативном общении

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

паралингвистика,
медиакоммуникация,
невербальные средства,
лингвокультурология,
гендерные
характеристики,
коммуникативный анализ,
профессиональная
коммуникация,
лингвopsихология.

Статья посвящена анализу паралингвистических средств в медиакоммуникативной коммуникации и их лингвокультурологическому и лингвopsихологическому изучению. Паралингвистические средства рассматриваются как ключевой элемент, который дополняет или иногда заменяет вербальные средства в общении. В исследовании анализируются гендерные, национальные и профессиональные аспекты невербальной коммуникации, а также их роль в обществе и профессиональной деятельности. Также описаны как универсальные, так и специализированные виды паралингвистических средств, подчеркивающие их важность для повышения эффективности коммуникации.

KIRISH

Media-kommunikativ muloqotda paralingvistik vositalar insonlar o'rtasida o'zaro muloqot qilishda muhim o'rin egallab, dialogda kerakli masofa tanlash, suhbatdosh ko'ziga boqish, suhbatdosh tana qismiga teginish, nutqda maxsus intonatsiyadan foydalanish va boshqa usullar orqali amalga oshiriladi. O'z navbatida, paralingvistik vositalar suhbatdoshning psixologik portretini chizishda muhim ahamiyat kasb etishi va tinglovchida so'zlovchi to'g'risida ijobiy taassurot uyg'otishga xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Paralingvistika (yunon tilida “para” – atrofida va “linguistics” – lingvistika so'zlaridan olingan) – 1) nutqiy aloqada verbal vositalar bilan birga qo'shimcha axborot berish uchun mo'ljallangan noverbal (verbal tilga oid bo'lmagan) vositalarni o'rganishni o'z ichiga olgan tilshunoslik bo'limi; 2) nutqiy muloqotda foydalaniladigan noverbal vositalar umumiylikiga aytiladi. Tilshunoslikning o'zaro aloqa-aralashuvda imo-ishora, mimika, nutq vaziyati kabi omillarni o'rganuvchi sohasi.

Paralingvistik vositalar dastlab 1644-yili Angliyada D. Bulverning “Nutq va muloqot qiluvchi imo-ishora harakatlarini ifodalovchi qo'lning tabiiy tili va xronologiyasi” nomli asarida tadqiq qilingan. Uning ilmiy nazariyasi asosida 1650–1670-yillar oralig'ida I. Shlezinger, L. Namir, R. Berdvistel, E. Klim, U. Stokoe va U. Belludji kabi izlanuvchilar va tadqiqotchilarning paralingvistik vositalarga oid ilmiy ishlari dunyoga kelgan. Tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarida imo-ishora harakatlarini tizimlashtirish, tartibga solish va mazmun-mohiyatini anglatuvchi yagona izohli lug'atni yaratish ustida izlanishlar olib borgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Olimlar qolgan noverbal (paralingvistik) vositalarni nutqda ayni vaqtning o'zida ega va kesim o'rnida qo'llash mumkinligini aytib, ularni bir-biridan farqlashni tartibga soluvchi aniq bir me'yor mavjud emas deb ta'kidlagan. Shu boisdan, ular umumiy xarakterga ega bo'lgan noverbal (paralingvistik) vositalarni quyidagi guruhlariga ajratgan:

a) harakat (masalan, qirqmoq, eshitmoq, yurmoq va boshqa); b) hususiyat (masalan, ahmoq, semiz, pakana va boshqa);

b) holat (masalan, uyqusirash, arazlash, tortinish va boshqa); g) munosabat (masalan, do'stona, oshiqona va boshqa);

d) hisoblash (masalan, ko'p, barcha, oz va boshqa).

V. Koneskayaning e'tirof etishicha, muloqotda verbal va noverbal vositalarning teng qo'llanilish holati olingan axborotni aniqlashtirish, ifodali va mazmunli qilish bilan tinglovchida ta'sir uyg'otish uchun foydalaniladi. Muloqotda ular axborot, pragmatik va ekspressivlik vazifalarini bajarib, biri ikkinchisining mazmunini to'ldirib keladi va ayrim holatda o'rnini egallaydi.

Muloqotda noverbal (paralingvistik) vositalardan foydalanishda milliy yoki umumqabul qilingan norma talablariga muvofiq, jinsiga ko'ra – *gender paralingvistik vositalar* (masalan, ayollarga hos bo'lgan doimiy tabassum, nozik ohang va boshqa)ga ham e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, lingvistika va ijtimoiy psixologiya sohalarida gender tengligi yoki ustunligi bir qator olimlarning diqqat markazida bo'lmoqda. Xususan, A. Piz odatda ayollarni erkaklarga qaraganda ko'proq sezgirligini, *ayollar intuitsiyasi* iborasi mavjudligini bildirgan. Ayollar noverbal signallarni tushunib yetish va eng kichik tafsilotlarga ham ahamiyat berishi kabi tug'ma qobiliyatlarga ega ekanligini aytgan. Ushbu harakatlar asosan farzand tarbiyasi bilan shug'ullangan ayollarda kuchli rivojlangan.

Amerikalik tilshunos N. Xenley lingvistika (til va semantika)dan foydalanishda ayol kishi bilan bog'liq farqliklarni o'rgangan ilk olim sifatida tanilgan. Olimning aytishicha, shaxslararo muloqotda ayollar erkaklarga nisbatan ta'sirchanlik va nozik did bilan kommunikatsiyaga kirishadi. Shu boisdan, ayollar muloqotda masofa tanlash, teginish va nigoh tashlash kabi paralingvistik vositalardan samarali foydalanadi. N. Xenleyning ilmiy izlanishlari davomchisi sifatida turkiyalik olim X. Bolak jamiyatda erkak va ayollarning muloqotda tutgan o'rni yuzasidan tadqiqot o'tkazib, ular o'rtasida kat'iy nazorat bo'lishi kerakligi to'g'risida xulosaga kelgan.

Professor I. Yildirimning ta'kidlashicha, inson yoshi va jinsi tana muloqoti (paralingvistik vositalar)dan foydalanishda muhim ta'sir o'tkazadi. Xotin-qizlar muloqotda vizual, ammo erkaklar og'zaki xabarlariga ahamiyat berishadi. Buning sababi ayollar erkaklardan farqli ravishda o'ziga hos ko'rinish holatini og'zaki iboralardan ko'ra samarali deb hisoblashadi.

Noverbal muloqotda foydalaniladigan ayrim paralingvistik signal vositalari insonlarning kasbi, fuqaroligi, qaysi korxona-tashkilotga mansubligi va bajarishi lozim bo'lgan xizmat vazifalarini ham ifodalab beradi. Masalan, ularga davlat ramzlari, tashkilot logotiplari, emblema, musiqiy nota, kiyinish etiketlari, yo'l belgilari, turli signal tovushlari, sport hakami imo-ishoralari, madaniyat va san'at vakillarining xatti- harakatlari yoki belgilarini kiritish mumkin. Bunday noverbal vositalarni **kasb-kor va hunar (professional) bilan bog'liq noverbal vositalar** deb atash mumkin. Chunki o'zbek tilshunosligida noverbal vositalar ishlatilish qo'lamiga ko'ra internatsional, milliy, individual va professional turlarga ajratilgan. Professional turga oid noverbal vositalarga ma'lum kasb, mashg'ulot bilan shug'ullanuvchi kishilar aloqa-aralashuvdagi ishoralar kiritilgan. Jumladan, M. Saidxonov kasb-hunar bilan bog'liq noverbal vositalarga formal logika, matematika uchun maxsus til, tasviriy san'at tili, morze tili; dengizchilar, YHXB xodimlari, sportdagi hakamlar tili va kundalik muomala madaniyatida aloqa-aralashuv vositasi deb tan olingan imo-ishora tilini keltirib o'tgan. Bularning barchasi ehtiyojdan kelib chiqqanini va umuminsoniy qadriyatga ega ekanligini unutmazlik kerak.

Kasb-kor va hunarga oid paralingvistik (*umumiy tushunchada nonverbal*) vositalar tinglovchiga maqsadli ravishda ma'lum bir axborotni uzatib, so'zlovchi bilan tinglovchi o'rtasida muloqot vositasi vazifasini o'taydi. Bu kabi nonverbal vositalar o'zbek, ingliz, usmonli turk, rus va boshqa tillar uchun ham xos hisoblanadi. Aslida ularga minglab misollarni keltirish mumkin. Ular orasida xalqaro maydonda tan olingan davlat ramzlari; alifbo harflari, morze, brayl, daktil va semafor alifbolari, kompaniya emblema va logotiplari; musiqa notalari va dirigor harakatlari hamda arab va rim raqamlari kabi til, millat, geografik muhit va sarhad tanlamaydigan nonverbal vositalar o'rin oladi. Masalan, sud-protsessual va tergov jarayonlaridan ma'lumki, kriminalistika sohasida voqea guvohlari bo'lmagan taqdirda yoki ularning ko'rsatmalari bir-biriga qarama-qarshi va shubhali bo'lgan vaziyatlarda hodisa jumbog'ini yechish va uni tizimlashtirish uchun faqat va faqat nonverbal (paralingvistik) signal vositalaridan foydalaniladi. Xususan, suhbat jarayonida inson nutqidagi to'xtalishlar, tezlashish, yuqori ovoz ohangi, verbal so'zlarni imo-ishora harakatlari bilan alishtirish, batafsil axborot berish, voqea-hodisalarni to'g'ri tizimlashtirish va chalkashtirish holatlari o'z kasbining malakali mutaxassislari uchun chinakam jumboq yechimi vazifasini o'taydi. Ayniqsa, voqealardagi kichik bir detallardan iborat nonverbal signal vositalari aynan ayblanuvchining kimligini aniqlash va uning sodir etgan xatti-harakatlariga baho berish (qasddan yoki ehtiyotsizlik)da qo'l keladi. Misol uchun gumonlanuvchining kiyim-kechagi, tashqi qiyofasi, ovoz ohangi va turli taqinchoqlari; mashinaning markasi, raqami va rangi; voqea predmeti, vaqti, joyi, masofasi, ob-havo sharoiti va hattoki tabiiy hodisalar bilan bog'liq signal ma'lumotlari ham sud jarayonlarida inson taqdiri bo'yicha yakuniy qaror qabul qilishda katta ahamiyatga ega.

Shunga ko'ra, muloqotda kasb-kor va hunarga oid nonverbal vositalarni so'zlovchi va tinglovchilar uchun maqsadli va beixtiyor yoki umumiy va xususiy axborot uzatish vazifalarida kelishi shartlariga ko'ra, quyidagi 4 ta:

a) kasb-hunarga oid nonverbal ma'no tashuvchi kiyimlar (*masalan, harbiylar, o't o'chiruvchilar va sportchilarning maxsus kiyim-kechaklari*);

b) kasb-hunarga oid ramzlar (*masalan, davlat ramzlari, musiqa notalari, yo'l harakati belgilari va kompaniya emblemalari*);

v) kasb-hunarga oid nonverbal imo-ishora harakatlari (*masalan, dirigor, fokuschi, raqqosa, rassom va harbiylarning harakatlari*);

g) kasb-hunarga oid nonverbal kompetentlik (*masalan, diktir nutqidagi vokalika va vrach-psixiatrning bemor harakatlarini dekodlashi*) guruhga ajratish mumkin.

Mazkur tavsiyada berilgan kasb-kor va hunarlarda nonverbal vositalar muloqotda universal va xususiy xarakterga ega bo'lish bilan birga, ayrim holatda mutlaq yoki qisman kasbiy faoliyat turini belgilaydi. Mazkur kasb-hunarlarining ayrimlarida mehnat faoliyati butkul, deyarli yoki qisman nonverbal muloqot yordamida amalga oshishi mumkinligini inobatga olib, kasb-hunar turlarini quyidagi 3 ta guruhga ajratish tavsiya qilinadi:

a) mutlaq nonverbal vositalar bilan bog'liq kasb-hunarlar – mehnat faoliyati faqatgina nonverbal muloqotdan iborat bo'lgan guruhlar (*masalan, dirigor, pantomima aktyori, fokuschi, rassom, raqqosa, surdolog, semafor-dengizchi, yo'l harakati nazoratchisi, futbol, xokkey hakamlari*);

b) qisman nonverbal vositalar bilan bog'liq kasb-hunarlar – mehnat faoliyati qisman, lekin xususiy xarakterga ega nonverbal muloqotdan iborat bo'lgan guruhlar (*masalan, harbiy xizmatchi, vrach-psixiatr, kompozitor, sirk artistlari, haydovchi, basketbol, boks, kurash hakami*);

v) universal nonverbal vositalar bilan bog'liq kasb-hunarlar – mehnat faoliyatida barcha kasblar uchun xos bo'lgan, umumiy xarakterga ega nonverbal muloqotdan foydalaniladigan guruhlar (*masalan, pedagog, diktor, aktyor, rejissyor, sotuvchi, shifokor, sartarosh, chevar, kulol, va boshqa.*).

XULOSA VA MUNOZARA

Bugungi kunga qadar paralingvistika sohasida tadqiqotchilar tomonidan talqin etib kelingan nonverbal vositalarga baho berish tavsifiy bosqichdan semiotik, lingvomadaniyatshunoslik va lingvopsixologik bosqichiga olib chiqildi. Paralingvistik (nonverbal) vositalar haqida ko'plab nazariy fikr-mulohazalar berildi, ma'lumotlar birlashtirildi, guruhlashtirildi va qo'llashdagi maqsad-vazifalariga ko'ra verbal vositalardan o'z ustunligini namoyish qilish mumkinligini ifodalandi. Bir so'z bilan aytganda, nonverbal va verbal muloqotlarni bir- biriga bo'lgan uzviy bog'liqligi va biri ikkinchisidan mustaqil aloqa vositasi sifatida o'z ustunligini namoyish qilishi mumkinligi o'zining ilmiy va amaliy isbotini topdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ярцева В. Большой энциклопедический словарь. 2-е издание. –М.: "Большая Российская энциклопедия", 1998.– С. 367.
2. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.–Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.–B. 79.
3. Басова А., Яегоров С. История сурдопедагогики. –М.: 1984. – С.21.
4. Стадульская Н. Товарные знаки в языке и внеязыковой действительности Великобритании и США: Автореф. дис. докт. фил. наук. –Пятигорск: 2014. –С. 11.
5. Конечкая В. Социология коммуникации: учебник. –М.: 1997. –С.110-124.
6. Nurmonov A. O'zbek paralingvistik vositalari // Tanlangan asarlar. 1-jild. –Т.: Akademnashr, 2012. –В. 221.
7. Пиз А. Язык телодвижений. Эксмо-през. 2010. – С. 10.
8. Crawford M., Popp D. Body Politics: Power, Sex, and Nonverbal Communication. London: Feminism & Psychology. 2002. – P. 291-292.
9. Post Partum Depression and Its Psychosocial Correlates: A Longitudinal Study among a Group of Women in Turkey. Women & Health. Istanbul Bilgi University. 2015.
10. Saidxonov M. Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar. –Т.: Fan, 2008. –В. 9, 80-81.
11. Yildirim İ. İletişim. Üçüncü kısım. –Ankara: Hacettepe Üniversitesi, 2017. –S. 19.
12. Eriş U. İletişim bilgisi. Ünite 3.– Eskişehir: Anadolu Üniversitesi, 2012. –S. 51.
13. Akay F. Non-verbal communication skills for effective presentation in EFL. Master of arts – Adana: Çukurova University, 2009. –P. 12.